



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



IV SHO‘BA. “BOBURNOMA”NING ADABIY-LINGVISTIK VA TARIXIY-SOTSIOLOGIK TALQINLARI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “BOBURNOMA” ASARIDA AYRIM TARIXIY TOPONIMLAR TALQINI INTERPRETATION OF SOME HISTORICAL TOPONAMES IN THE "BABURNAMA" OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR

Uluqov Nosirjon

filologiya fanlari doktori,

Namangan davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasida professori

E- pochta: Onomastika66@mail.ru

ORCID: 0009-0001-2609-3431

Jalilova Madina

NamDU mustaqil tadqiqotchisi

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./PBZB3735](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./PBZB3735)

Annotatsiya. *Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarining tarixiy toponimiyaning noyob manbasi sifatidagi ahamiyati, muallifning qo‘shnomlilik va ko‘pnomilik hodisalari, xususan, ayrim tarixiy toponimlarga doir talqinlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *onomastika, onomastik birlik, toponimiya, tarixiy toponimiya, tarixiy toponim, oronim, oykonim, polisonim, variant, motiv, etimologiya.*

Annotation. *The article highlights the significance of Zahiriddin Muhammad Bobur’s “Boburnoma” as a unique source of historical toponymy, the author’s interpretations of the phenomena of co-naming and polynomialism, in particular, some historical toponyms.*

Keywords: *onomastics, onomastic unity, toponymy, historical toponymy, historical toponym, oronym, oikonym, polysonym, variant, motif, etymology.*

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarini uning ilmiy-tanqidiy matnini yaratgan Eyji Mano bejizga uni *ma’lumotlar xazinasida* deb atamagan edi. Asarda juda ko‘p onomastik birliklar: antroponimlar (kishi ismlari, laqablar, taxalluslar, nisbalar), makro va mikrotoponimlar (xoronimlar, komonimlar, polisonimlar, oronimlar, nekronimlar, ekklezionimlar), gidronimlar, bibliionimlar jamlangan bo‘lib, tarixiy onomastikaning, jumladan, toponimiyaning bebaho, noyob manbasi hisoblanadi. Asarda XV–XVI asrdagi Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston toponimiyasiga mansub joy nomlarining etimologiyasi,



geografik joylashuvi, tarixiy, kitobiy va mahalliy xalq tilidagi variantlari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Asarda qo'llangan toponimlarning miqdori haqidagi mutaxassislarining fikrlari bir-biridan muayyan darajada farq qiladi. Chunonchi, H.Hasanovning fikricha, “Boburnoma”da 1000 ga yaqin geografik nom tilga olingan [Qorayev, 2006:308], T. Nafasov esa 1100 dan ortiq [Нафасов, 1993:39], S.Hasanov 1261 ta [Бобурнома, 2002:296], Z.Xolmanova 1253 ta [Холманова, 2021:74], M.Mo'minova ham 1253 ta [Муминова, 2021:19] joy nomi qo'llanganligini qayd etgan.

Biz esa “Boburnoma” asarini o'rganib, shuni aniqladikki, asarda jami 1154 ta toponim: shundan 17 ta xoronim, 678 ta oykonim, 31 ta komonim, 134 ta gidronim, 125 ta oronim, 42 ta dromonim, 43 ta drimonim, 51 ta agroonim, 23 ta nekronim, 10 ta ekklezionim qayd etilgan.

Asardagi toponimlarning statistik tahlilidagi farqlarni quyidagicha izohlash mumkin:

Asardagi ayrim toponimlarning bir necha variantlari berilgan. Masalan, *Andijon rudi* – *Andijon suvi*, *Andijon qal'asi* – *Andijon qo'rg'oni*, *Xuroson mamoliki* – *Xuroson saltanati*, *Hinduston mamlakati* – *Hinduston mamoliki* kabi. Bunday toponimlar aynan bir nomning variantlari sifatida qaraldi.

Memuarda qayd etilgan toponimlarning fonetik, leksik va boshqa variantlari ham bir nom sifatida olindi va izohlandi hamda tahlilga tortildi: *Xuroson* – *Xurosonot*, *Hinduston* – *Hindustonot* kabi.

Asarda toponimik birliklarning har biri muayyan tartibda tasvirlagan va tavsiflangan. Obyektlarning geografik joylashuvi, ma'muriy-hududiy mansubligi, tarkibi, bo'linishi, iqlimi, tabiati, nabototi, hayvonoti, aholisining etnik, iqtisodiy-ijtimoiy xususiyatlari geografiya, tarix, etnologiya, tilshunoslik fanlar uyg'unligida ta'riflagan. Boburning o'ziga xos uslub shundaki, u joy nomlarini qomusiy olim sifatida tavsiflagan, tasvirlagan, izohlagan va tadqiq etgan. Asar XV–XVI asrlar toponimiyasiga xos qo'shnomlilik va ko'pnomlilik masalasini o'rganishda ham muhim manbadir.

Bobur ayrim shahar nomlarining etimologiyasiga ham alohida e'tibor beradi. Jumladan, hozirgi Qashqadaryo viloyati markazi *Qarshi* shahrining vajhi tasmiyasi (etimologiyasi)ni quyidagicha izohlaydi: *Yana Qarshi viloyatidurkim, Nasaf va Naxshab ham derlar, Qarshi mo'g'ulcha ottur, go'rxonani mo'g'ul tili bila “qarshi” derlar. G'olibo, bu ot Chingizxon tasallutidin so'ng bo'lg'ondur* [Бобурнома, 2002:61].

Agar “Boburnoma” yozilmaganida edi biz bu shaharning nomlanishini asl mohiyatini bilolmas edik. Chunki *qarshi* so'zi ko'plab turkiy doston va tarixiy asarlarda, asosan, *zid*, *ro'para*, *saroy*, *qasr* singari ma'nolarda uchrar edi. Bobur esa yuqoridagi parchada guvohi bo'lganimizdek, shahar nomining lug'aviy asosi – *qarshi* so'zining mo'g'ulcha ekanini, bu so'z *qabriston* ma'nosini ifodalashini izohlab, asoslashga navbat kelganda, shahar aholisining Chingizxon istilosi



qurboni bo'lgani bilan izohlaydi. Demak, bu shaharning buningdek fojia bilan bog'liq tarzda nomlanishiga jamiyat hayotida yuz bergan bosqinchilik sabab bo'lgan. Shuningdek, bu shaharni mo'g'ul bosqiniga qadar *Nasaf va Naxshab* deb atalganini ham alohida ta'kidlab o'tiladi. Hozirda ham *Nasaf* polisonimi transonimizatsiya asosida ayrim nomlarga asos bo'lgan: “*Nasaf*” – Qarshi shahrining fudbol kulubi.

Bobur *Kesh* viloyatining *Shahrisabz* deb atalishi boisini ham juda tushunarli izohlaydi: *Samarqand bila Kesh orasida bir tog' tushubtur, Itmak doboni derlar, sangtaroshlik qilur toshlarni tamom bu tog'din eltarlar. Bahorlar sahrosi va shahri va bomi va tomi xub sabz bo'lur uchun Shahrisabz ham derlar* [Бобурнома, 2002:61]. Demak, bu shaharning nomlanishiga bahor chog'i sahrolari-yu shahri, dalalari-yu tomlari yashillikka burkangani, tabiat bilan hamnafas bo'lgani motiv bo'lgan va *Yashil shahar* deb atalgan. Shahar nomi ikki so'zning, ya'ni sanskritcha *shahar* – “davlat”, “mutlaqo hokimiyatning qarorgohi” [Qorayev, 2006:50] va fors-tojikcha *sabz* – “yashil”, “yashil rangli” [Рахматуллаев, 2019:3], so'zlarining izofali birikuvidan hosil bo'lgan.

Memuarda Bobur otasi Umarshayx mirzo viloyatlari xususida so'z ochganda *O'ratepani* ham tilga olib, kitoblarda *O'ratepa, Farg'ona, Xo'jandning* asl nomi *Usrushna* ekanligini, *Usrush* tarzida yozilishini ham qayd etadi: *Farg'ona, Xo'jand va O'ratepakim, asl bularning otlari kitoblarda Usrushnadur va Usrush ham bitirlar, qoldilar* [Бобурнома, 2002:38].

O'ratepa – qo'rg'on va viloyat (hozirgi Tojikiston Respublikasining So'g'd viloyatiga qaraydi) [Бобур энциклопедияси, 2014:602]. “Hudud ul-olam” asarida *Sarusho'na, Sarushana*; manbalarda odatda *Ushrusana* yoki *Usrushana* variantlarida qayd etilgan. Hozirgi vaqtda mazkur hududda joylashgan *O'ratepa* nohiyasining markazi *Istaravshan* deb ataladi [Худуд ул-олам, 2008:29]. Ma'lumotlarga ko'ra shahar dastlab *O'ratepa* nomi bilan “Boburnoma” asarida tilga olingan. Demak, *Usrushna, Usrush, Istaravshan* aynan bir polisonimning fonetik, *O'ratepa* polisonimining tarixiy variantlaridir.

Adib *Ikki suv orasi* toponimini uch o'rinda tilga oladi va har birida yana *Rabotak o'rchini* deb ham atalishini ham ta'kidlaydi: *To'lun xojaning ko'chi Ikki suv orasida erdikim, bu Ikki suv orasini Rabotak o'rchini derlar* [Бобурнома, 2002:63].

Rabotak o'rchini – Farg'ona vodiysidagi tuman. Hozirgi Namangan viloyatining Norin tumaniga to'g'ri keladi [Бобур энциклопедияси, 2014:424]. Bu tarixiy hududga *Norin* va *Qoradaryo* oralig'idagi yerlar kirgani bois *Ikki suv orasi* deb ham atalgan.

Bobur *G'azni* shaharning *Zobul, Zobuliston* variantlari ham borligini yozadi: *Yana bir G'azni viloyatidir. Ba'zi tuman ham derlar... Ba'zi G'aznin ham bitibdurlar... Uchunchi iqlimdindur. Zobul ham derlar, Zobuliston bu viloyattin iborattur* [Бобурнома, 2002:113].



G'azni hozirgi kunda ham hech bir o'zgarishsiz shu nom bilan ataladi, Afg'oniston Respublikasiga qaraydi.

Olim Bannu shahri tasvirida uning g'arbida chegaradosh *Dasht* joylashganligini, bu navohiyini *Bozor* va *Tok* ham deyishlarini qayd etadi: *Janubi Cho'para va Sind suyidur, sharqi Dinkot, g'arbi Dashtkim, Bozor va Tok ham derlar* [Бобурнома, 2002:119].

Muallif asarda Muborakshoh tomonidan nomlangan *Qal'ayi Zafar* qo'rg'onining o'tmishda *Shoftevar* nomi bilan mashhur bo'lganligini yozadi: *Qal'ayi Zafarkim, burun Shoftevarg'a mashhur ekandur, qo'rg'on qilib berkitti. Qal'ayi Zafar otini ul qo'ydi* [Бобурнома, 2002:122-123].

Badaxshonlik bek Muborakshoh Muhammad Mahdumiya qarshi bosh ko'tarib, uning a'yonlarini o'ldirgan va o'zbeklarni quvib chiqargan. Mahmudni mahv etgach, qal'ani mustahkamlab, g'alaba sharafiga Ko'kcha suvi sohilidagi bu maskanni *Qal'ayi Zafar* (Zafar qal'asi) deb atagan.

Manbalarda *Ixtiyoriddin qal'asi* deb atalsa-da, xalq orasida *Olaqo'rg'on* nomi bilan mashhur bo'lgan qo'rg'on memuarda shunday izohlangan: *El orasida bu xabarni solibturlarkim, Badiuzzamon va Muzaffar Mirzo podshohni tutub, Xirining qal'ayi Ixtiyoriddinig'akim, xolo Olaqo'rg'ong'a mashhurdur, chiqoribturlar* [Бобурнома, 2002:149].

Bu maskan Hirot shahridagi mustahkam qal'a bo'lib, Malik Faxriddin Kurt tomonidan 1300-yillar atrofida xom g'ishtdan to'rtburchak shaklda qurilgan. Shohrux Mirzoning amri bilan tosh hamda pishshiq g'ishtdan qayta tiklangan.

Savoti – shimoliy Hindistonda, Sind daryosi sohilidagi mavze bo'lib, Bobur bu yerda karkidon ovlagan. *Savotida* karkidon ko'pligi va shu yer ov qilinadigan maskan bo'lganligi uchun xalq orasida *Karkxona* deb ham atalgan: *O'rduni daryo sari yurutub, men Savoti tarafikim, Karkxona ham derlar, karg ovlog'ali bordim, bir necha karg paydo bo'ldi* [Бобурнома, 2002:165].

Bobur Sulton Husayn mirzo shoirlari qatorida Muhammad Solihni ham yodga olib, yoqimli g'azallari bor, biroq silliqliqi mazasicha emas, bir yaxshi bayti budir deya quyidagi baytni keltiradi:

Bo'ldi Tanbalg'a vatan Farg'ona,

Qildi Farg'onani tanbalxona.

Andijon viloyatini Tanbalxona ham derlar [Бобурнома, 2002:139]. *Tanbalxona* – Andijon viloyatining Ahmad Tanbal egallab olgan davridagi kinoyali nomi bo'lib, Bobur buni yuqoridagi bayt bilan dalillaydi.

Sirdaryoning nomlari juda ko'p bo'lib, qadimgi yunon tarixchilari kitobida *Yaksart*, ba'zan *Tanais*, “Avesto”da esa *Danu*, *Yaosha*, X asrda yozilgan “Hudud ul-olam” qo'lyozmasida *Xashart*, arablar kelgandan keyin *Sayhun*, Beruniy asarlarida *Xasart*, “Boburnoma”da esa *Sayhun*, *Xo'jand suvi* shaklida qo'llangan: *Sayhun daryosikim, Xo'jand suyig'a mashhurdir* [Бобурнома, 2002:34]. *Xo'jand* – Sirdaryo bo'yidagi shahar bo'lib, (hozir Tojikistondagi Sug'd viloyatining markazi) daryoning shu hududdan o'tgan qismi shu oykonim bilan atalgan.

Konigil Siyohob yoqasidadurkim, bu Qora suvni Obi Rahmat ham derlar. [Бобурнома, 2002:60] Ariqning boshlanish qismi Siyohob deyilgan (hozirgi Siyob). *Siyohob* – fors-tojikcha bo‘lib, *qorasuv* ma’nosini bildiradi. Yer ostidan chiqadigan buloq va sizot suvlari bilan to‘yinadigan soy-jilg‘alar *qorasuv* deb ataladi, chunki ularning suvi qoramtir tusda bo‘ladi [Улуқов, 2008:64]. Demak. *Obi Rahmat* suvi ham yer ostidan chiqadigan suvlar hisobiga to‘yingani uchun *Siyohob*, *Qora suv* kabi nomlar bilan ham atalgan. Bobur davrida bu ariqning ham forscha, ham turkiycha nomlari teng qo‘llangan.

Boburning noyob iqtidor egasi sifatida u turkiy tilni, shuningdek, fors-tojik, arab, afg‘on (pushtu), urdu (Pokistonda yashovchi aholi tili), hind tillarini ham bilgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak u bizga toponimlar haqida bir-biridan qiziq va aniq ma’lumotlar bergan, ularni tahlil qila olgan. Jumladan, Bobur tabiat mo‘jizalari bo‘lgan tog‘larning nomiga ham alohida e’tibor qaratadi. *Hindukush* tog‘ini hindlar *Savalak Parbat* deb ataganlarini yozadi va buning nomlanishini juda tushunarli izohlaydi: *Bu tog‘ii Hind eli Savalak Parbat derlar, hind tili bila “sava” – rub, “lak” – yuz ming, “parbat” – tog‘, ya’ni rub va yuz ming tog‘kim, yuz yigirma besh ming tog‘ bo‘lg‘ay. Ushbu tog‘ Kobulda Hindukushqa mavsumdur* [Бобурнома, 2002:97].

Hindukush tog‘i Osiyodagi yirik tog‘ tizmasi bo‘lib, 800 km chamasi. Bobur asarda bu tog‘ni *Hindukush*, *Hindukush tog‘i* variantlarida qayd etgan. Rivoyatlarga ko‘ra, bu tog‘larda ko‘p hindular halok bo‘lgan. XIV asrda yashagan arab sayyohi Ibn Battuta bunday yozgan: “*Hindukush* deb ataladigan tog‘lardan o‘tdik, bu “hindular qotili” demakdir. Chunki Hindistondan keltirilayotga juda ko‘p qullar qalin qor va qattiq sovuq dastidan halok bo‘lganlar. Tog‘ning nomi ba’zan *Hinduko‘h* (Hind tog‘i) tarzida ham yozilgan [Хасанов, 1985:120].

Adabiyotlar:

1. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2006. – 320 b.
2. Захириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. – Тошкент: Шарқ, 2014. – 744 б.
3. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 336 б.
4. Муминова М. “Бобурнома” матни таржималарида антропоним ва топонимларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фал. док. диссер. автореф. – Андижон, 2021. – 56 б.
5. Нафасов Т. Бобур – номшунос // Бобур ва ўзбек миллий маданияти тараққиётининг айрим масалалари: Республика илмий анжумани материаллари. – Андижон, 1993. –Б. 38-43.
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2019.



7. Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008.
8. Холманова З.Т. “Бобурнома” – тил қомуси. – Тошкент: Akademnashr, 2021. – 336 б.
9. Ҳасанов Ҳ. Географик номлар сири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985.
10. Ҳудуд ул-олам. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 46 б.